


# “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun



(O‘RQ-996, 14.11.2024-y.)



### **BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK** —

bu bolaga ataylab zarar yetkazishdir. Ya’ni, bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, tanasiga, sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish, urish, qo‘rqitish, ranjitish yoki ruhiy azob berish hisoblanadi



### **JISMONIY ZO‘RAVONLIK** —

bu bolani urish, unga turli darajada jarohat yetkazish, uni xavfli joyda tashlab ketish yoki hayoti va sog‘lig‘i xavf ostida bo‘lsa ham yordam bermaslikdir



### **RUHIY ZO‘RAVONLIK** —

bu bolani so‘z bilan xafa qilishdir. Bolani haqoratlash, yolg‘on gaplar bilan ayblash, qo‘rqitish, kamsitish, mensimaslik yoki tahqirlash ruhiy zo'ravonlik hisoblanadi



### **JINSIY ZO‘RAVONLIK** —

bu bolaga uyatsiz harakatlar qilishdir. Ya’ni, bolaning tanasiga ruxsatsiz tegish, uni qo‘rqitib yoki aldab shunday ishlarni qilishga majburlash, bolani uyatsiz rasmlar yoki videolarda qatnashtirish, undan yomon maqsadlarda foydalanish yoki uni yomon gaplar va harakatlar bilan bezovta qilish





### **G'AMXO'RLIK QILMASLIK —**

Ota-ona yoki bolaga qarab turgan kattalar unga g'amxo'rlik qilish imkoniga ega bo'lsa-yu, baribir bolaning ovqati, kiyimi, davolanishi, o'qishi va tarbiyasi kabi asosiy ehtiyojlarini qondirmasligi. Bunday holat bolaning sog'lig'iga zarar yetkazishi, jismonan, aqlan va axloqan to'g'ri rivojlanishimga to'sqinlik qilishi mumkin




### **TA'QIB ETISH (BULLING) —**

bu bir bola yoki bir guruh bolalar boshqa bolani doimiy ravishda xafa qilishidir. Masalan, bolaga haqoratli laqab qo'yishi, u bilan gaplashmaslikka chaqirish, yolg'iz qoldirish, buyumlarimni olib qo'yish yoki sindirish, tashqi ko'rinishini, fe'l-atvorini yoki aqlini hammaga muhokama qilib kulish. Bunday ishlar telefon yoki internet orqali qilinsa ham bulling sanaladi

### **EKSPLUATATSIYA QILISH —**

bu boladan yomon maqsadlarda foydalanishdir. Masalan, bolani pul topish uchun ishlatish, tilanchilikka majburlash, yomon ishlar qilishga undash yoki odam savdosiga qo'shish, shuningdek, uni qo'rqitib yoki majburlab erta nikohga kiritish, er-xotin bo'lib yashashga, diniy ta'limni majburan olishga yoki og'ir ishlarga majburlash



# Bolalarni zo'rovonlikdan qanday himoya qilish mumkin?

**HIMOYA ORDERI** — zo'rovonlikka uchragan bolani himoya qilish uchun beriladigan hujjat



## ORDER:

- ✓ **ichki ishlar organlari** tomonidan beriladi
- ✓ muddati **30 kun**
- ✓ zo'rovonlik yoki uning tahdidi aniqlanganidan keyin **24 soat ichida** beriladi
- ✓ zo'rovonlik qilgan shaxs **16 yoshga to'lmagan** bo'lsa berilmaydi
- ✓ sud tomonidan **1 yilgacha** uzaytirishi mumkin



Agar jabrlanuvchi  
**18 yoshga to'lsa**  
order muddati tugaydi



**Ta'lim muassasalarida**  
bolalarga nisbatan  
zo'ravonlikka yo'l  
qo'yilmaydi



Misol uchun,  
maktablarda bolalarni  
urish, kamsitish yoki  
shafqatsiz muomalalar  
qat'iyon **taqiqlanadi**



# O'QITUVCHILAR:



o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya qilishi

barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishi

**psixologlar** bilan hamkorlik qilishi lozim